

## YAXSHILIK VA YOMONLIK HAQIDAGI O‘ZBEK XALQ MAQOLLARI

**Yusupova Sabohatxon A‘zamjonovna**

FarDu ingliz tili kafedrası katta o‘qituvchi

**Ma‘murova Malohatxon Bahodirjon qizi**

FarDU Lingvistika: ingliz tili 1-kurs magistranti

***Annotatsiya:** Maqolada xalq og‘zaki ijodi bo‘lmish yaxshilik va yomonlik haqidagi maqollarning oiladagi bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati, o‘rni, roli haqida so‘z boradi. Bir qator maqollardan keltirilib, ularning bola ruhiyatiga ta‘sir doirasi, yo‘nalishlari tahlil etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Maqol, xalq og‘zaki ijodi, rol, oila, shaxs, kamolot.*

### KIRISH

Bolalar xalq og‘zaki ijodida maqollar ulkan o‘rin egallaydi. Xalq yaratgan qisqa, chuqur va tugal ma‘noli, tugal gaplar maqol deb yuritiladi. Maqol xalqning, bir necha avlodlarning aqlu farosati xamda turmush tajribasining bayoni, ular donishmandligining mahsulidir. Yurtimizda maqollarni ommalashtirish, yoshlarni maqol ilmini o‘rganishga jalb etish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-dekabrda “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarorida qator vazifalar belgilab berildi. Jumladan:

-3 yoshgacha bolalarda badiiy-estetik didni shakllantirish va intellektni rivojlantirishga mo‘ljallangan alla, ertak, maqollar va topishmoqlarning audio shakli yaratilib, multfilmlar to‘plami tayyorlanadi va hududlarga tarqatish;

-Bolalarda ijobiy xulq motivlarini shakllantirish bo‘yicha “Bola aziz, odobi undan aziz” mavzuida ertak, matal, afsona, doston, maqollar asosida multimedia mahsulotlarini tayyorlash kabi vazifalar belgilab olindi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Maqollarda hayotning turfa qiyinchiliklarini boshidan o'tkazib ko'rgan, turmushdagi hodisalarga aql ko'zi bilan qaraydigan, toza qalbli, oliyjanob mehnat ahlining biror voqea-hodisadan, biror kishidan yoki biror voqeadan chiqargan xulosasi bayon qilinadi. Bu xulosa bolalar uchun yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qilishi muqarrar. Maqollar xalqning aql-idroki, tarixiy tajribasi hamda mehnatning badiiy ifodasi sifatida sayqallanib kelinmoqda.

Agar biz shartli ravishda "oilada bola tarbiyasi" va "oila dunyosi" ("oila olami") atamalarini o'zaro qiyoslasak, quyidagi manzara hosil bo'ladi:<sup>35</sup>

- oila tarbiyasi tushunchasida oilada bola ongi va tuyg'ular olamiga ta'sir etuvchi tarbiyaviy omillar ko'proq nazarda tutiladi. Irsiyat orqali o'tgan belgixususiyatlardan tashqari, bola xarakterida oilaviy jarayonda yuz bergan barcha xatti-harakat va holat, munosabatlar o'chmas iz qoldiradi. Keyinchalik xarakterning yetakchi yoki bosh xususiyatiga aylangan fazilat yoki odatqiliqlar oilaviy munosabatlardan oziqlanadi. Shu ma'noda, oila tarbiyasi har jihatdan ijobiy, maqtovga sazovor bo'la olmaganidek, har jihatdan salbiy yoki yaroqsiz ham bo'lmasligi tabiiydir. Har holda, oila tarbiyasida yetakchi ijobiy xususiyatlar ustuvor bo'lsa, ayrim juz'iy kamchiliklarni, nuqsonlarni bilintirmay turadi. "Har to'kisda bir ayb", deydi dono xalqimiz va ushbu maqol bilan hamma narsa hamisha birday yaxshi bo'lmasligi uqtiriladi;

- "Oila dunyosi" esa, "oila tarbiyasi"ga nisbatan birmuncha badiiy ifoda bo'lib, unda oilaviy munosabatlar dialektikasi, o'zaro kundalik muloqotlar murakkabligi bamisoli zarrabin orqali "namoyish etiladi". "Oila dunyosi" nisbatan ramziy-majoziy tushuncha bo'lib, uning ilmiy ta'rifini berish oson emas. Muxtasar qilib aytilsa, bu so'zlar vositasida oilaning o'ziga xos ma'naviy muhit, o'z qonuniyatlariga ega bo'lgan betakror tarbiya o'chog'i ekanligi ta'kidlanadi.

Bugungi kunda xalq maqollari yordamida bolalarda odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga g'amxo'rlik qilish haqidagi

<sup>35</sup> Safarova R. Shaxsni shakllantirish omillari. Ta'lim taraqqiyoti. 2011. № 3-4. 60-63 b.

bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish mehnatsevarlikning asosiy negizini tashkil etadi. Estetik tarbiya shaxsning barkamolligining bir ko'rinishi hisoblanib, tabiat manzaralari, yilning turli fasllarida unda sodir bo'ladigan o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. Shahar va qishloqlarning qiyofasi ulardagi noyob binolar, bog'rog'lar, me'morchilik yodgorliklari, xiyobonlar, maydonlar, favvoralar, xar-xil bezaklar, hatto tozalik, saranjom-sarishtalik bolalarning yuksak didli bo'lishlariga ta'sir etadi. Shu o'rinda ayniqsa, muzeylar, teatr va kinoxonalarning ahamiyatini alohida ta'kidlash kerak<sup>36</sup>.

Xalq maqollarida yaxshilik, halollik, to'g'rilik hamda rostgo'ylik ulug'lanib, yomonlik, yolg'onchilik va qalloblik esa qoralanadi<sup>37</sup>:

*To'g'ri bo'lsang, o'sib borib gul bo'larsan,  
Egri bo'lsang, o'sib borib kul bo'larsan.*

*Yaxshi bilan yursang yetarsan murodga,  
Yomon bilan yursang, qolarsan uyatga.*

*Yaxshidan ot qolar,  
Yomondan dod qolar.*

*Ajalga davo yo'q,  
Yomonga — balo.*

*Asl odam hech o'lmas.*

*Aslning xatosi bo'lmas,  
Yomonning oshnasi bo'lmas.*

*Achchiqni achchiq kesar.*

---

<sup>36</sup> Keldiyorov R.A. Adabiyot darslari samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik asoslari: p.f.n. diss. ... avtoreferati.- T.:TDPU. 2011.20b.

<sup>37</sup> Axloq-odobga oid Hadis namunalari.- T.: Fan. 2010.-172 b.

*Bast etgan o'zar,  
Qasd etgan to'zar.*

*Baxtiyor bo'lsa zamon,  
Noshukur bo'lma — yomon.*

*Baxshi bor joyda yaxshi bor.*

*Bezoridan hamma bezor.*

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Haqiqatan ham, xalq maqollari yordamida bolalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash istiqlol talabidir. Buning uchun avvalo oilada ota-onalarning o'zi ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Bu ularning zimmasiga juda katta ma'suliyat yuklaydi. Demak, bugungi ota-ona - o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlaridan to'la xalos etish, ta'lim-tarbiya jarayonini jahon rivojlangan ta'lim darajasiga ko'tarishda faol ishtirok etishi bilan birga bolalar qalbi va ongida mehnatsevarlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. *Safarova R. Shaxsni shakllantirish omillari. Ta'lim taraqqiyoti. 2011. № 3-4. 60-63 b.*
2. *Keldiyorov R.A. Adabiyot darslari samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik asoslari: p.f.n. diss. ... avtoreferati.-T.:TDFPU. 2011.20b.*
3. *Axloq-odobga oid Hadis namunalari.- T.: Fan. 2010.-172 b.*
4. *<http://library.ziyonet.uz/ru/book/114753>*
5. *[www.lex.uz](http://www.lex.uz)*